

## NUROTA TUMAN LINGVISTIK TAMINOTI (TUZILISHI VA TAVSIFI)

**Muftillayeva Ruxsora Toshmuhammad qizi**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti.

E-mail: [ruxsoramuftillayeva851@gmail.com](mailto:ruxsoramuftillayeva851@gmail.com)

**Annotatsiya:** Dialektal korpusning lingvistik ta‘minoti muayyan dialekt yoki tilning mintaqaviy xilma-xilligi, lingvistik xususiyatlarini ifodalovchi matnlar yoki yozuvlar to‘plamini ishlab chiqish va tavsiflashni anglatadi. Ushbu maqola dialektal korpusdagi lingvistik xususiyatlarni tizimli ravishda belgilash va tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Lingvistik annotatsiyalar dialektning fonetik, fonologik, morfologik, sintaktik va semantik xususiyatlari haqidagi ma‘lumotlarni, shuningdek, so‘zlashuvchi demografiyasi va tildan foydalanish shakllari kabi sotsiolingvistik omillar haqidagi ma‘lumotlarni beradi. Lingvistik ta‘minotga ega dialektal korpusning tuzilishi va tavsifi muayyan dialektning o‘ziga xos lingvistik xususiyatlari haqida qimmatli fikrlarni berishi mumkin. Bundan tashqari, dialektal korpusning lingvistik ta‘minoti tilni saqlash, tilni jonlantirish tashabbuslari va til o‘rgatish, o‘rganish uchun resurslarni ishlab chiqishga yordam beradi.

**Kalit so‘zlar:** Leksik, semantik, grammatik, fonetik, shevashunoslik, lug‘at

**Annotation:** Linguistic maintenance of a dialectal corpus refers to the development and description of a set of texts or records that represent the regional variety, linguistic features of a particular dialect or language. This article includes a systematic definition and analysis of linguistic features in the dialectal corpus. Linguistic annotations can include information about phonetic, phonological, morphological, syntactic, and semantic features of a dialect, as well as information about sociolinguistic factors such as speaker demographics and patterns of language use. The construction and description of a dialectal corpus with linguistic support can provide valuable insights into the unique linguistic features of a particular dialect. In addition, the linguistic support of a dialectal corpus can aid in the development of language preservation, language revitalization initiatives, and resources for language teaching and learning.

**Keywords:** Lexical, semantic, grammatical, phonetic, linguistics, dictionary

**Аннотация:** Лингвистическое поддержание диалектного корпуса подразумевает разработку и описание набора текстов или записей, которые представляют региональное разнообразие, лингвистические особенности конкретного диалекта или языка. Данная статья включает систематическое определение и анализ языковых особенностей диалектного корпуса. Лингвистические аннотации могут включать информацию о фонетических, фонологических, морфологических, синтаксических и семантических особенностях диалекта, а также информацию о социолингвистических факторах, таких как демографические характеристики говорящего и модели использования языка. Построение и описание диалектного корпуса с лингвистической поддержкой может дать ценную информацию об уникальных лингвистических особенностях конкретного диалекта. Кроме того, лингвистическая поддержка диалектного корпуса может помочь в развитии

инициатив по сохранению языка, его возрождению и ресурсов для преподавания и изучения языка.

**Ключевые слова:** Лексический, семантический, грамматический, фонетический, лингвистический, словарь.

Milliy til muayyan bir millat vakillari uchun tarixan umumiy bo‘lgan, milliy madaniyatning ko‘zgusi sifatida ularni ruhan birlashtiradigan vosita bo‘lib, u adabiy til bilan bir qatorda, xalq shevalarini... o‘z ichiga oladi [Mahmudov N, Sobirov A, Odilov Y, Ziyodullayev G: 2017; 7]. Vaqt o‘tishi bilan shevalar iste’moldan chiqib ketishi, yoki adabiy til o‘rnini egallashi mumkin. Shevalar tarixan qanchalik barqaror bo‘lar ekan, adabiy til uchun shevashunos tadqiqotchilar tomonidan keltirilgan lingvistik nuqtai nazarlarda bir xulosaga kelish qiyin kechadi. Shevalar adabiy tilning asosiy boyish manbai hisoblanadi. Dialektologiya (yunon. Dialektos – sheva so‘zidan ) tilshunoslikning bir sohasi bo‘lib, u biror tilning mavjud dialektlarini, ya’ni mahalliy lahja va shevalarni o‘rganadi. Shevashunoslik – sheva (fran. So‘zlashish, odat, til), shunos (fran. bilish, o‘rganish) degan ma’nolarini bildiradi. Shevashunoslik mahalliy shevalar va ularning lahjalarini o‘rganish haqidagi fan hisoblanib, o‘zbek shevashunosligi O‘zbekistonda mavjud dialekt, lahja va shevalarni o‘rganadi [Xolova M, 2022; 12]. Jahon tilshunosligida ham dialektologiya sohasida ancha ishlar amalga oshirilgan. Turkologiyada Mahmud Qoshg‘ariy o‘zining „Devoni lug‘otit turk“ asaridan shevalarni o‘rganishni boshlagan. O‘zbek tilshunosligida shevalarning fonetik, leksik, grammatik, xususiyatlariga oid T. Yo‘ldoshev [Yo‘ldoshev T, 1986; 34], N. Rajabov [Rajabov N, 1990; 30], S.Ibragimov [ Ibragimov S, 1959; 56] kabi olimlar izlanishlar olib borgan [ Xolova M, 2022; 12]. O‘zbek tili fonetik va leksik jihatdan turli xil. Bu o‘zbek tili shevalarining ham boyligi hisoblanadi. Yudaxin o‘zbek shevalarini tojik shevalar bilan munosabatiga ko‘ra tasniflaydi va ularni 5 guruhga ajratadi. (1-jadval)

1	Toshkent
2	Farg‘ona
3	Qipchoq
4	Xiva
5	Shimoliy o‘zbek

Qipchoq lahjasiga taalluqli shevalar juda katta territoriyaga tarqalgan. O‘zbekistonning barcha viloyatlarida mazkur lahja vakillarining borligi ham bu fikrning to‘g‘ri ekanligiga dalildir. Haqiqatan ham qipchoq lahjasining vakillari Toshkent viloyatining Ohangaron vodiysidagina emas, hatto Fargona, Andijon viloyatlarida ham yashaydilar. Sirdaryo, Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazm viloyatlari aholisining ko‘pchilik qismi ham qipchoq lahjasining vakillaridir. Navoiy viloyati shevalari ham qipchoq lahjasiga kiradi. Bugina emas o‘zbek tili qipchoq lahjasining shevalari Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston respublikalari territoriyasida ham bor [Ashirboyev S, 2013; 31]. Hozirgi vaqtda o‘zbek shevalarida uchraydigan ayrim so‘zlar faqat keksa avlod tilida uchrayotgani, bu so‘zlarni yosh avlod vakillari tushunmasligi bu so‘zlarning iste’moldan chiqib ketishiga olib kelmoqda, buning sababi esa turmush tarzining zamonaviylashuvi bilan izohlanmoqda. Shuning uchun ham Nurota tumani shevasi tadqiqida tashqi axborot vositalaridan qisman uzilgan mobil aloqa vositalaridan foydalanish ko‘nikmasiga

ega bo‘lmagan, savodxonlik darajasi o‘rtacha bo‘lgan keksa avlod vakili va shahar zonalaridan hududiy jihatdan uzoq bo‘lgan qishloq va ovullarda yashovchilarning so‘zlashuviga urg‘u berildi. Hozirga qadar tadqiqotlarni kuzatgan holda aytish mumkinki, aksariyat tadqiqotlar shevalarning mavzuviy bo‘linuvchanligi boshqa turkiy til oilalariga qiyoshlash orqali [Raximov S, 1985; 18] olib borilgan.

V.I.Sinsius [ Цинциус В, 1979; 4] shevaga oid lug‘at ma‘lumotlarini qayta ishlashda mavzuviy guruhlashning bir necha bosqichini taklif qiladi [Xolova M, 2022; 26]. Bu boradagi K.M.Musayev [Musayev K, 1984; 25] hamda M.Xolova [Xolova M, 2022; 26] fikrlariga asoslanib Nurota shevasiga oid so‘zlarni quyidagicha tasniflaymiz. (2-jadval)

Fonetik dialektizmlar
Leksik dialektizmlar
Semantik dialektizmlar
Grammatik dialektizmlar

**Fonetik dialektizmlar.** Dialektizmning bu turiga adabiy til me‘yorlaridan fonetik tarkibiga ko‘ra farqlanuvchi, ammo semantik qurilishiga ko‘ra bir ma‘noda qo‘llanuvchi so‘zlar kiradi [Xolova M, 2022; 27]. M. tuvaq (tuvoq) ~ tovoq (ad.t): Muslima buvi *tuvoq*ni qozon chetiga joylashtirib qo‘ydi-da... [Sh.Xolmirzayev. „ O‘n sakkizga kirmagan kim bor‘’, 27-b]

Nurota tumani aholisi „j“ tovushini qo‘shib gapiradi, ammo bugungi kunda yosh avlod vakillari bunday gapirmaslikka harakat qilishadi. Bu holat ko‘proq tog‘li hududlarga yaqin bo‘lgan qishloqlarda (Chuya, Oqqula, Jarma, Yangibino, Sovuq buloq ) qishloqlarida saqlanib qolgan.

**Leksik dialektizmlar.** Bu tur ma‘lum bir shevaga oid bo‘lib, adabiy tilda kuzatilmaydigan, ammo o‘zbek tilining izohli lug‘atiga kiritilgan so‘zlar kiradi. M. og‘ariq – paykal egatlariga yoki umuman paykalga shoxariqdan suv olib taratish uchun xizmat qiladigan muvaqqat ariq. M.: Nasim bug‘doy poyada uqariq qazishdan erta qaytdi [T.Murod. „Qo‘shiq‘. 189- b.]

**Semantik dialektizmlar.** Dialektizmlarning bu turiga ma‘lum bir shevaga xos so‘zlarning umumiy fonetik tarkibiga ega, semantik nomutanosib so‘zlar kiritiladi. M.: tön (to‘n) so‘zi Nurota shevasida to‘yda kuyov kiyadigan qalin paxta solib toshlar bilan bezatilgan kiyimni bildirsa, Boysun shevasida qishda kiyiladigan qalin paxta solib qavilgan qishki kiyimni bildiradi, Xakas tili Qizil shevasida tön so‘zining qishki kiyimdan tashqari, ko‘ylak, kiyim ma‘nolarini ham anglatadi. Sätil ( satil) (Nurota sh.) – asosan suyuqliklarni tashish uchun mo‘ljallangan sirli, plastmassa yoki temirdan ishlangan idish, Sätil (satil) (Namangan sh.) – sirlangan, ikki tomonidan ushlaydigan qulog‘i bor metall idish.

**Grammatik dialektizmlar.** Dialektizmlarning ushbu turiga shevaning umumiy semantik ma‘noligi saqlanib, grammatik qurilishi farqlanuvchi so‘zlar kiritiladi. R.P.Abdina [Abdina R, 2018; 104] turkiy tilga oid shevalarda morfologik dialektizmlarning juda kam kuzatilishini qayd etadi. M.: ad.t. мойдырых / Xakas qizil sheva. Мәнхар; ad.t. чыбырынды ~ çiiirindï, чыырбас~çiiirïnbas / Boysun shevasi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, o‘zbek tili „j“ lovchi shevalarda ham morfologik qurilishi farqlanuvchi shevalarning deyarli kuzatilmasligi, adabiy til va shevalar orasida morfologik qo‘shimchalar bo‘yicha qisman farqlanishi, asarlarda o‘z aksini topgan grammatik

dialektizmlar Respublika hududidan qat'iy nazar barcha uchun tushunarli bo'lishi hamda qo'shimchalarning fonetik jihati orqali farqlanish holati kuzatilishini aytib o'tish joizdir [ Xolova M, 2022; 27].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, har qanday korpus resursining uzoq muddat saqlanishi va foydalanish uchun lingvistik ta'minot yordami juda zarur. Bu ayniqsa, dialektal korpus uchun muhim. Korpusdan foydalanuvchilar tomonidan tushinarsiz bo'lishi mumkin bo'lgan ko'plab omillar, jumladan, lug'aviy noaniqlik yoki morfologik noaniqlik, notanish sintaksis, nutq tuzilishi, standartdan sezilarli darajada farq qiluvchi fonologik shakllar tufayli yuzaga kelishi mumkin. Tilning ma'lum bir lahjasini yoki mintaqaviy xilma-xilligini ifodalovchi matnlar yoki yozuvlar to'plamini tuzish va tavsiflash orqali dialekt korpusining lingvistik bazasi tuziladi. Dialekt korpusidagi til xususiyatlarini tizimli ravishda izohlash va tahlil qilish dialektning o'ziga xos xususiyatlari haqida qimmatli tushunchalar beradi. Dialektal korpusni lingvistik ta'minot bilan hujjatlashtirish va tahlil qilish orqali biz til xilma-xilligining boyligi va murakkabligini yaxshiroq tushunishimiz mumkin, shu bilan birga turli til an'analarini doimiy ravishda o'rganish va tahlil qilishimiz mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirboyev S. O'zbek Dialektologiyasi. – Toshkent: 2013. -B. 31.
2. URL: [https://uz.wikipedia.org/wiki/Adabiy\\_til](https://uz.wikipedia.org/wiki/Adabiy_til)
3. <https://ru.wikipedia.org/wiki/диалектология>
4. Абдина Р.П., Белоглазов П.Е., Каскаракова З.Е., Кызласов А.С. Принципы лексикотематической дифференциации диалектной лексики хакасского языка\ Мир науки, культуры, образования, 2018. №1 (68). – С. 104-120
5. 10-sinf ona tili darsligi. Mahmudov N.M., Sobirov A.Sh, Odilov Y.R., Ziyodullayeva G.Sh. – Toshkent: Davlat milliy ensiklopediyasi, 2017. –B. 7.
6. Ражабов Н. Ўзбек шеваларида феълнинг морфологик тузилиши. – Тошкент: Фан, 1990. – Б. 30.
7. Мусаев К.М. Лексикология тюркских языков. – Москва. Наука, 1984. – С. 25.
8. Рахимов С. Сурхондарё вилояти ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1985. – Б. 18.
9. Ибрагимов С. Фарғона шевалари касб-хунар лексикаси. – Тошкент: Фан, 1959. – Б. 56.
10. Цинциус В.И. Проблемы сравнительно-исторического изучения лексики алтайских языков. – Ленинград: Наука. 1979. – С. 4
11. Холова М. ўзбек миллий шевалари корпусини тузишнинг лингвистик асослари (Бойсун тумани “ж”ловчишевалари мисолида):Фил. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD)...дисс. Автореф. – Термиз, 2022.
12. Ёўлдошев Т. Тожикистондаги ўзбек шевалари морфологияси (феъл). – Тошкент: Фан, 1986. – Б. 34